



ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИ ОИЛА  
ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР  
ДАВЛАТ ҚҮМИТАСИ



ЎЗБЕКИСТОН  
РЕСПУБЛИКАСИ ОИЛӢ  
ТАҶЛИМ, ФАН ВА  
ИННОВАЦИЯЛАР  
ВАЗИРЛИГИ



ТОШКЕНТ  
ДАВЛАТ  
ПЕДАГОГИКА  
УНИВЕРСИТЕТИ

# “XXI АСР ИЛМ-ФАНИ ВА ТАҶЛИМ СОҲАСИДА АЁЛЛАР: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР”

халқаро илмий-амалий анжуман  
2023 йил 8 февраль

Тошкент-2023

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ТАЪЛИМ, ФАН ВА ИННОВАЦИЯЛАР ВАЗИРЛИГИ  
ТОШКЕНТ ДАВЛAT ПЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ  
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОИЛА ВА ХОТИН-ҚИЗЛАР ДАВЛAT ҚўМИТАСИ  
**“XXI АСР ИЛМ-ФАНИ ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДА АЁЛЛАР: ЮТУҚЛАР  
ВА МУАММОЛАР”**  
**халқаро илмий-амалий анжуман материаллари**  
**2023-йил, 8-февраль, Тошкент**

**“ЖЕНЩИНЫ В НАУКЕ И ОБРАЗОВАНИИ XXI ВЕКА: ДОСТИЖЕНИЯ И  
ПРОБЛЕМЫ”**  
**Материалы международной научно-практической конференции**  
**8 февраля 2023 г., Ташкент**

**“WOMEN IN SCIENCE AND EDUCATION OF THE XXI CENTURY:  
ACHIEVEMENTS AND PROBLEMS”**  
**Materials of the international scientific and practical conference**  
**February 8, 2023, Tashkent**

**Конференциянинг ташкилий ва дастурий қўмитаси**

- |                   |   |
|-------------------|---|
| 1.А.К.Киргизбоев  | ТДПУ ректори, ташкилий қўмита раиси   |
| 2.Б.С.Абдуллаева  | ТДПУ Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректори, раис ўринбосари                     |
| 3.Ф.Р.Мадрахимова | ТДПУ Ёшлар билан ишлаш бўйича проректор   |
| 4.Р.Г.Исянов      | ТДПУ Илмий котиб  |
| 5.А.А.Абдазимов   | ТДПУ Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиғи |

- Такризчилар:** Педагогика фанлари доктори, профессор Р.Б.Ярматов  
Педагогика фанлари доктори, профессор в.б. М.Б.Уразова

**OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MILLIY  
QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI**  
**Nurbayeva Xabiba Botirovna, Tibbiyot akademiyasi Pedagogika va  
Psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lismuassasalari talabalarini milliy qadriyatlar va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar tahlil qilinadi. Keltirilayotgan ma'lumotlar oliy ta'lismuassasalarida talabalarini milliy qadriyatlar va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashni takomillashtirish tizimini yanada rivojlantirish shuningdek, talabalarini milliy qadriyatlar va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda bugungi kuning eng dolzARB masalasidir.

**Kalit so'zlar:** Yangi O'zbekiston, fuqarolik, shaxs, pedagogik –psixologik xususiyatlari milliy qadriyat, komil inson, urf –odatlar, talim tarbiya, buyuk allomalar, omillar.

**ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ У  
СТУДЕНТОВ ВУЗОВ**

**Нурбаева Хабиба Ботыровна, Старший преподаватель кафедры педагогики и психологии Медицинской академии**

**Абстрактный.** В данной статье анализируются современные подходы, направленные на повышение эффективности воспитания студентов высших учебных заведений в духе национальных ценностей и верности Родине. Данная информация является наиболее актуальным вопросом на сегодняшний день, по дальнейшему развитию системы совершенствования образования студентов в высших учебных заведениях в духе национальных ценностей и верности Родине, а также в воспитании студентов в высших учебных заведениях. дух национальных ценностей и верности Родине.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, гражданство, личность, педагогико-психологические особенности, национальная ценность, совершенный человек, традиции, образование, великие учёные, факторы.

**FEATURES OF DEVELOPMENT OF NATIONAL VALUES IN UNIVERSITY  
STUDENTS**

**Nurbaeva Khabiba Botyrova, Senior Lecturer of the Department of Pedagogy  
and Psychology of the Medical Academy**

**Abstract.** This article analyzes modern approaches aimed at improving the effectiveness of educating students of higher educational institutions in the spirit of national values and loyalty to the Motherland. This information is the most pressing issue today, on the further development of the system of improving the education of students in higher educational institutions in the spirit of national values and loyalty to the Motherland, as well as in the education of students in higher educational institutions. spirit of national values and loyalty to the Motherland.

**Keywords:** New Uzbekistan, citizenship, personality, pedagogical and psychological features, national value, perfect person, traditions, education, great scientists, factors.

Ta’lim tizimining hozirgi kundagi rivojlanish bosqichi, bozor munosabatlarining jamiyat hayotida mustahkam o‘rin olishi boshqaruvning ma’muriy-buyruqbozlik tizimida demokratik, iqtisodiy shakllariga o‘tish bilan tavsiflanadigan ta’lim tizimi boshqarish mexanizmining o‘zgartirilishi zaruratini shart qilib qo‘ymoqda. Bu nafaqat boshqaruv muammosini oldingi planga surib chiqaradi, balki boshqaruv subyektlari tomonidan uni amalga oshirish usullarini takomillashtirish, turli bo‘g‘inlardagi rahbarlarning boshqaruv faoliyatidagi mahsuldor faoliyatiy xususiyatlarni bashorat qilish va shakllantirish kabi muammolarni ham olg‘a suradi. Yoshlarimizni har tamonlama qo’llab quvvatlash va ularni vatanga muhabbat va sadoqatli qilib tarbiyalash har birimizning burchimizdir.

O‘tmish tariximizda ham milliy qadriyatlar sog‘lom va nosog‘lom turlarga ajratilib kelingan. Jumladan, xalqimizning o‘lmas madaniy merosi, dunyo tan olgan bebafo ma’naviyat durdonasi “Avesto” yovuz qadriyatlarni qoralash, inson va jamiyatni ezgulikka chorlashning mumtoz namunasidir. Ushbu falsafiy yodgorlikning e’tiborga sazovor jihatlaridan biri shundaki, bu asar 2700 yil avval yaratilganini inobatga olsak, unga zamin, asos sifatida, avval ham kamida ikki ming yillik hayotiy tajriba, ilmiy bilimlar va psixologik mushohada bo‘lganini ta’kidlash mumkin. Shubhasiz, bu kitobning yaratilishi ob’ektiv zaruriyatga aylangan. Avestodagi quyidagi fikrlar Zardushtiylik mafkurasining tub mohiyatini ifoda etadi: “Ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu ishlar bilan ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu ishni alqayman. O‘zimni bori ezgu fikrga, ezgu so‘zlar (aytish)ga, ezgu ishlar amaliga baxshida qilaman, barcha yomon fikrlardan, yomon so‘zu yomon ishlardan yuz o‘giraman” [58]. Demak ezgu fikr, ezgu so‘z va ezgu ishlar qadriyat sifatida qaralgan va o‘sha davr odamlari uchun mazkur dastur taraqqiyot garovi hisoblangan.

Avestoning eng qadimiy qismi bo‘lgan “Yasht”larda kishilarga dahshat urug‘ini sochib, yuraklariga g‘ulg‘ula soladigan qahri qattiq Anxra Manyu (Axriman) boshliq xudolar bir taraf bo‘lsa, ezgulik tarqatuvchi, yaxshilik tilovchi, yordam beruvchi Axura Mazda boshchiligidagi xudolar boshqa guruhga ajratilgan. Keyinchalik Zardusht ta’limotida politeizmdan monoteizm sari borilib, faqat Axura Mazda tangri sifatida e’tirof etilgan, qolganlari ma’bud va farishtalar, deb tushuntirilgan.[40]

Mazkur ta’limtoda yovuzlik, qanday shakl va mazmunga ega bo‘lmasin, avvalo, qadriyat sifatida paydo bo‘lishi e’tiborga olinsa, Avestoda Axriman aynan buzg‘unchi va yovuz qadriyatlar sohibi, sababchisi va tarqatuvchisi, deb talqin etilgan. Bu ham hududimizda qadim davrlardayoq vayronkor va nosog‘lom qadriyatlarni ijtimoiy mohiyati teran anglab yetilgani va unga kurashilganligini ko‘rsatadi.

Zardushtiylik ta’limotining mantiqiy davomi bo‘lgan Moniychilikda ham sog‘lom va nosog‘lom qadriyatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabat masalasi markaziy o‘rin egallaydi. Chunonchi, Moniy (216-276-y.y.) asos solgan ushbu diniy-falsafiy ta’limot, eng avvalo, ma’naviy-axloqiy poklikka da’vat etgan. Moniy fikricha, Zulmat va Yovuzlik kuchlari Nur va Ezgulik kuchlarini qoplab olgan va inson faqat moddiy manfaatlarga qaramlikdan iloji boricha ozod bo‘lish orqali Nurga Zulmat bilan o‘zaro kurashda g‘alabaga erishishga imkon yarata oladi [58].

Sog‘lom qadriyatlar va nosog‘loim qadriyatlar (illat) o‘rtasidagi kurashning talqini Moniychilikdan qariyb ikki yarim asr keyin, taxminan V asrning oxirlarida paydo bo‘lgan Mazdakchilik diniy-falsafiy ta’limotida ham o‘ziga xos tarzda rivojlantirildi. Jumladan, uning asoschisi Mazdak qarashlariga ko‘ra, Yer yuzida Zulmat va Yovuzlik kuchlari zo‘rayib ketgan. Biroq, zaminni ulardan tozalab, Nur va Ezgulikka yuksak e’tibor qaratish

zarur. Buning uchun avvalo, aql va adolatga keng o‘rin ajratish kerak. Bu borada Mazdak, odamlarni shaxsiy mulkni qayta taqsimlashga da’vat etib, boylarning ortiqcha mulklarini kambag‘allarga bo‘lib berishga chaqirgan.

Demak yuqoridagi qarashlar bizda qadriyat ya’ni qadrlanadigan odatlar, qoidalar, fazilatlar, an’analar va normalarni sog‘lom va nosog‘lom shaklga yoki milliy va sohta shakllarga ajratishimiz kerakligini ham ko‘rsatadi. Shuningdek mazkur masalaga daxldor tadqiqotlar milliy vadriyatlarni milliy o‘zlik va milliy ma’naviyat bilan bog‘langanligini ko‘rsatadi. Jumladan, qadriyatlar bilan ma’naviy meros orasidagi birlik shundaki, barcha qadriyatlarning asos, ildizlari ushbu merosga borib taqaladi. Uning mevasi, qonuniy davomi, maxsulidir. Bularni inkor qiluvchi oqim esa nigilizmdir.

Tafovvt shundaki, qadriyatlar ilm-fan, xususan falsafa, ijtimoiy psixologiya, estetika, etika, yutuqlari bilan boyib, yangilanib boradi, eskilari yoki sohtalari istisno etiladi yoki inkor qilinadi. Merosning xuddi o‘zi boyimaydi, qachon, qanday, qaerda yaratilgan bo‘lsa, shundayligicha saqlanadi, faqat taxlil, tadqiq etishda, targ‘ib qilinganda baholanishi, saralashi, foydalanishi mumkin.

Odatda milliy va ma’naviy qadriyatlar biror shakldagi moddiylik tarzida o‘z ifodasini topishi mumkin. Masalan, ular inson fazilati, kitob, haykal, badiiy, tasviriy, amaliy san’at asarlari, husnihat, (kaligrafiya) memoriallarda namoyon bo‘ladi. Chunonchi tomoshabin, o‘quvchi, tinglashi ongiga, e’tibori, xis tuyg‘usiga ijobiy ta’sir etadi. Natijada uning ongiga oshiradi, zehni o‘tkirlashadi, estetik didini boyitadi, madaniyatni kengaytiradi; hulqini yaxshilaydi, kayfiyatni hush qiladi, ilhom g‘ayrat bahsh etadi; tadbirkor tashabbuskor, ishbilarmon qiladi. Demak, bu moddiylashgan omillar ma’naviyat funksiyalarini ham bajaradi.

Qadriyatlar tarixiy xususiyat va ahamiyatka molikdir. Chunonchi bir davrda o‘zigagina xos va ma’naviy ishlab chiqarish, boylik (resurs) lar, an’ana, marosim, turmush tarzi, hayotiy tamoyillar va hokazo qadriyatlar bor. Bu davr o‘timsh bilan qadrsiz-bo‘lishi, sifatan yangi qimmat kasb tashkil qilishi mumkin. Masalan, o‘rta asrlarda ot-arava asosiy qadriyat edi; transportning boshqa turlari barpo etilgach, bizda o‘z qimmatini anchagina yo‘qotgan; orqada qolgan mamlakatdagina u xozirgacha qadrlanadi.

Qadriyatlarga negilistik qarash yoki ularni oshirish, toshirib, yashirib-kamsitib yoki ilmiy tilda yozganda idealizatsiya qilib baholash sohaga yotdir. Ularga ob’ektiv, ya’ni xolisona, me’yorida (optimal) baho berish uchun metodologik asos dialektik ta’limotdir; negilizm va idealizatsiya uning alternativasi, dilemmasidir.

Qadriyatlar orasida o‘ziga xos-spetsefik hususiyatga ega bo‘lgani, xozirgi zamonda eng ko‘p tarqalgan milliy qadriyatlardir. Chunki, xozirgi dunyoda qancha milliylik bo‘lsa shuncha qadriyatlar bor.

Milliy qadriyatlar deb muayyan halq millat bo‘lib shakllangandan so‘ng yaratgan va yaratilayotgan, jamiyat hayoti va taraqqiyoti uchun g‘oyat qimmatli qadrli, shu millat manfatlariga, maqsadlariga xizmat qiladigan moddiy va ma’naviy boyliklarga aytildi.

O‘zbek milliy qadriyati deganimizda shu millat tashkil topa boshlagan davrdan buyon hozirgacha bunyod etilgan, shakllantirilgan, taraqqiy ettirib, qaror toptirgan, endi xozirgi avlod hududi shu ishlarni qilayotganligi oqibatida bunyod etilayotgan qadriyatlarni tushunamiz. Ular bilan milliy ijtimoiy, umuminsoniy qadriyatlar orasida mutloq chegara yo‘q, balki ular bilan mushtarak vorislik va ponrinsippal tafovvtlar bor

xolos. O‘zbek milliy qonuniyatlar bularga sodiqlik ruhi bilan yo‘g‘rilgan. Buni dedaktikaning vorislik qonuniyati izohlab, tavsiflab beradi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga baho berishda biz oltita tamoyilga asoslandik: qonun ustuvorligi; inson xaq-huquqlari va xurfikrlik; turli millat vakillariga hurmat va ular bilan bahamjihat; diniy bag‘rikenglik; dunyoviy bilimlarga intilish; ma’rifatparvarlik; o‘zga halqlarning ilg‘or tajribalari va mazmunini o‘rganish kabilar.

Tadqiqotchi D.Alimovaning “Insoniyat tarixi g‘oyalar va mafkurlar tarixidir” risolasida ham, dastlabki yozma manba – “Avesto” kitobida ham ezgulik kasb etadigan qadriyatlar ilgari surilgan, yaxshilik bilan yomonlik o‘rtasidagi azaliy kurash aks ettirilgan. Ya’ni ezgulik, insonparvarlik, bunyodkorlik qadriyati bilan yovuzlik, buzg‘unchilik, vayronkorlik illatlar bilan kurash o‘sha davr xalqlarini tarraqiyoti va tannazulini belgilab bergenilagini ilmiy aoslaydi [57].

Talabalarda milliy qadriyat shakllanishini o‘rganar ekanmiz, biz mazkur mmlliyl qadriyatlarni algaritimi ularni qaysi bunyodkor qayi sohta va buzg‘unchi ekanligini tadqiq etishimiz lozim. Insoniyatni johillikka yetaklovchi illatlar va nosog‘lom qadriyatlar haqida muqaddas kitobimiz Qu’oni karimda ham quyidagicha fikrlarni ko‘rishimiz mumkin. “Ular Alloho ni va imonli kishilarni aldamoqchi bo‘ladilar va o‘zları sezmagانلار holda faqat o‘zlarinigina aldaydilar. Ularning dillarda maraz bor. Ularga “Er yuzida buzg‘unchilik qilmanglar!” deyilsa, “Biz – isloh qiluvchilarmiz”, deydilar. “Ogoh bo‘lingizkim, ularning o‘zları tuban kimsalardir”, deyilgan”. Yoki “Kim qastdan bir mo‘minni o‘ldirsa, uning jazosi jahannam bo‘lib, o‘sha joyda abadiy qolajak”, deb ta’kidlangan[118].

“Qur‘on”da insonning ruhiy va ma’naviy kamolga yetishiga to‘sinqinlik qiluvchi salbiy xislat va illatlardan biri g‘azab deb ko‘rsatiladi. U ruhiy razolat sifatida talqin etiladi. Chunki g‘azab kelganda aql qochadi, inson o‘z xulq-atvorini to‘g‘ri tashkil qila olmasligi natijasida o‘z manfaati, obro‘sini himoya qilaman deb johillikka yo‘l qo‘yadi, g‘azab, hatto, inson salomatligiga ham zarar yetkazadi. Shuning uchun ham islam insonni aql va insofga, o‘z xulq-atvorini to‘g‘ri tashkillashtira olish kabi fazilatlarga qadriyat sifatida qaraydi. Chunki g‘azab kelganda chiqarilgan hukm, amalga oshirilgan xatti-harakat johillik belgisi bo‘lib hisoblanadi. G‘azabni bosish bilan birga uni qo‘zg‘agan shaxsni kechira olish darajasida o‘zini boshqara olish xislati ham qadrlanadi.

Sog‘lom qadriyatlar insoniyatni barkamollikka yetaklashi va inson kamoloti bilan bog‘liq islam dini g‘oyalarini o‘zida mukammal mujassam etgan “Naqshbandiya” tariqati kishilarda qadriyatga aylanish kerak bo‘lgan fazilatlar mehr-oqibat, samimiylilik, halollik, mehnatsevarlik, rostgo‘ylik, sabr-qanoatning tarkib topishiga yo‘llar ekan, ulardagi harom sanalgan ishlar, ya’ni o‘g‘rilik, noplilik, xasislik, yolg‘onchilik, firibgarlik, ta’magirlilik, boylikka hirs qo‘yish kabi yomon illatlarni qoralaydi.

Shuningdek, hadisi muborakda “Qaysi bir musulmon ikkinchi bir musulmon birodari boshiga tig‘ ko‘tarsa, Allohu Taolonning farishtalari to o‘sha tig‘ni qaytarib o‘rniga qo‘ymaguncha la’nat aytib turadilar” kabi fikrlar keltirilgan. Bular esa islam dinining insonparvarlik mohiyatidan darak berib, Talabalarda milliy qadrityalarni shakllantirish va barqarorligiga erishishimizda asos bo‘lib xizmat qilmog‘i darkor.

Demak, islam dini ta’limoti bo‘yicha ham inson ma’naviy kamolotini yoki biz tadqiq qilayotgan milliy qadriyatlar asosini faqat aqliy rivojlanish emas, balki axloqiy sifatlar: sabr-qanoat, chidam, bardoshlilik, o‘z shaxsiga va o‘zga shaxsga nisbatan

hurmat hissining mavjudligi, insonparvar g‘oyalarning shakllanganligi, iymon-e’tiqod va vijdonning pokligi hamda xushhulqlilikning shakllanishi tashkil etadi.

Buyuk tarbiyashunos mutafakkirimiz Abu Nasr Forobiy [54] ta’limotida axloqiy qadriyatlar, barkamol avlodni tarbiyalashning eng asosiy omili sifatida qaralgan. Uning axloqiy qadriyatlar tarbiyasi to‘g‘risidagi fikrlari «Fozil odamlar shaxri», «Baxt saodatga yerishuv to‘g‘risida», «Ixso – al - ulum», «Ilmlarning kelib chiqishi», «Aql ma’nolari to‘g‘risida” kabi risolalarida bayon etiladi.

Bundan XI asr oldin yashab ijod qilgan Abu Nasr Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asarida ham milliy qadriyatga aylangan o‘n ikkita fazilat qachonku shu shag‘ar odamlari tomonidan qadriyat darajasig yetsagina u shaha farovonlikka uning aholisi esa foizillik jeirishishi mumkinligin qayd qiladi.

Demak Abu Nasr Forobiyning “Fozil odamlar shahri” asarini umumlashtirsak, undagi fikriga ko‘ra, “Har bir inson boshidan komil emas, ammo tug‘ma ravishda o‘ziga xos bo‘lgan ichki shuurila bosqichma-bosqich komillikka jiddu-jahd bilan intiladi. Hamma narsani idrok qilish insonni komillik va lazzat tomon boshlaydi. Insonning asl ruhiy kamoloti birinchi haqni tanish orqali hosil bo‘ladi. Ma’rifat– baxt-saodat va kamolot sari qo‘yilgan birinchi qadamdir”, demak, har bir inson komillikka o‘z-o‘zidan erishmaydi, unga qa’tiyatlari iroda hamda mehnat asosida o‘z xulq-atvorida go‘zal fazilatlarni orttirish bilan erishishi ta’kidlanadi. Asar mazmunida, inson o‘z hulq-atvorida o‘n ikkita eng go‘zal va mukammal fazilatlarni shakllantira olsagina, u kamolotga yetadi va ruhan hamda tabiatan xayrli amallarni bajarishga hamda sharr (yomon), buzg‘unchi ishlardan saqlanishga o‘zida kuch topa oladi. Shu sababli har bir insonda fazilatli xatti-harakatlar yoki razolatli fe’l-atvor tug‘diradigan iste’dod mavjud bo‘lib, u har ikkisidan birini bajarishga qodirdir, degan fikrlar ilgani suriladi.

Abu Nasr Forobiy o‘zining asarlarida insonlardagi sog‘lom xulq-atvor va uning fazilatlari kabi xislatlarni ma’naviy kamolotning asosiy mezoni sifatida ko‘rsatadi. Shaxs ma’naviy jihatdan kamolga yetishida yoki biz tadqiq qilayotgan mafkuraviy immunitet shakllanishida avvalo ruhan pok, turli ichki qarshiliklarni yenga oladigan, qa’tiyatlari, o‘zligini anglagan, insonparvar g‘oyalarga pur inson bo‘lishi kerakligini uqtiradi.

Ibn Sino bobomiz ham milliy qadriyat, odob-axloq, xulq-atvor masalasiga ko‘proq murojaat qilgan mutafakkirlardan hisoblanadilar. Jumladan, Ibn Sino: “Agar iyoон xulq odatga kirib qolsa....” Buyuk alloma Ibn Sino ham ta’lim-tarbiya va axloqqa oid “Tadbir almanozil”, “Risola fi ilm al-axloq”, “Risola fi al-ahd”, “Risola fi tazkiyai an-nafs”, “Siyosat al-badan”, “Kitob al-ansof” kabi asarlar yaratgan. Ibn Sinoning fikricha, bolada qadriyatlar tizimi tarbiya orqali avvalo oila, ota-onasi orqali shakllanadi. “Bola axloqi shakllanishida, – deydi u, – er-xotinning bir-biriga bo‘lgan munosabati muhim o‘rin tutadi. Buning uchun oila a’zolarining har biriga ma’lum vazifalar yuklatilgan bo‘lishi kerak”[81]

Bahouddin Naqshbandning[109] qadriyatlar haqidagi fikrlari g‘oyat qadrlidir. U barkamol insonni tarbiyalash dastlab milliy qadriyatlarga aylangan odobdan boshlanishini ta’kidlab shunday degan yedi: «Adab hulqni chiroyli qilish, so‘z va felnini soz qilishdir”. Odab saqlash - muhabbat samarasi, yana muhabbat daraxtining urug‘i hamdir. Agar odabdan ozgina nuqsonga yo‘l qo‘ysa nimaiki qilsang ham, beadablik ko‘rinadi. Zero, beadablar yashaydigan ijtimoiy-ruhiy muhit nosog‘lom bo‘lib, nafaqat

insonlarga, balki boshqa jonzotlarga ham salbiy ta'sir yetishi tabiiy. Odam o'zini bir xil sifat va ko'riishda olib yurishi lozim, toki odamlarda unga tasarruf (ta'sir kilish) ta'masi paydo bo'lmasin.

Bizning xulosamizcha, bu jarayon mazkur masalaga pedagogic-psixologik muammo sifatida qarashni va uning bugungi kundagi dolzarbligidan kelib chiqib, muammoni yanada kengroq, aniqroq va mukammalroq tahlil qilish uchun o'ziga xos ilmiy asoslanga empirik malumotlarni qo'lga kiritishni taqazo etmoqda. Shu bois keyingi paragrafda Talabalarda milliy qadriyatlarni shakllantirishning ijtimoiy psixologik omillarini xorij tadqiqotchilari tomonidan o'r ganilishiga alohida e'tibor qaratiladi.

### **FOYADALANGAN ADABIYOTLAR RO'YAXATI**

1. 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi. "Harakatlar strategiyasi". [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz).

2. O'zbekiston Respublikasi prezidenti SH.M. Mirziyoevning 2017 yil 19 sentyabrdagi BMT bosh assambleyasining 72 sessiyasidagi so'zlagan nutqi. Milliy tiklanish gazetasi 27 sentyabr 2017 yil. №40 (472).

3. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'RQ - 637, 23.09.2020.

4. O'zbekiston Reespublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. // O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. - T., 2017. - B.39.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida" PF-5847-son Farmoni

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari.

**МУНДАРИЖА**

Абдуллаева Б.С., Сайдова Б.Н. <b>АЁЛ ТИМСОЛИ: КЕЧА ВА БУГУН</b>	3
Одинахон Жамолдинова <b>ХОТИН-ҚИЗЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШИ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИНИ БЕЛГИЛОВЧИ ОМИЛ</b>	10
Тошпулатова М.И. <b>МАТЕМАТИКАНИ ЎҚИТИШ ЖАРАЁНИДА ИНТЕГРАТИВ ЁНДАШИШ</b>	14
Yilmaz JANKALO‘G‘LU <b>AHLAK FELSEFESİ VE AHLAK ÖĞRETİMİ ÜZERİNE BAZI DEĞERLENDİRMELER</b>	17
Abdusalomova Xadicha G`ayratjon qizi <b>UCHINCHI RENESSANS SARI ILK ODIMLARNI TASHLAGAN O’ZBEKİSTONDAGI SO’NGGI BESH YILLIKDAGI TUB ISLOHOTLAR YOXUD ILM-FAN SOHASIDA AYOLLAR</b>	22
Нурматова Камола Шакиржон кизи <b>ВКЛАД КОМПОЗИТОРА ОЙДИН АБДУЛЛАЕВОЙ В СОВРЕМЕННОЕ МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА</b>	25
Saidaxmedova Nodira Ilhomovna, Nizamova Shoira Isamiddinovna <b>XOTIN-QIZLARNING JAMIyatDAGI O’RNI VA ISHTIROKIDA RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING O’ZIGA XOS XUSUSIYATLARI</b>	28
Розубаева Мохинур Турсунбаевна <b>ЖЕНЩИНЫ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ: НАУКА И КАЧЕСТВЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ</b>	32
Toshxo‘jayeva Nargiza, Sa’dullaeva Mahfuza <b>O’ZBEKİSTONDA XALQ TA’LIMI TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI</b>	38
Toshxo‘jayeva Nargiza, Kenjaeva Nodira <b>BOSHLANG‘ICh SINFDA TABIIY FANLARNING O’QUV PREDMETI SIFATIDA ShAKLLANISHI TARIXI</b>	40
J.K.Yusupova <b>DASTURLASHNI O’RGANUVCHILAR UCHUN ONLAYN HAKAM TIZIMI</b>	43
J.K.Yusupova <b>BOG’LANGAN GRAFLARDA MARSHRUTLAR. ENG QISQA MARSHRUTNI ANIQLASH ALGORITMI. UNI VARIANTLAR SONI BO’YICHA XAJMINI BAXOLASH</b>	47
Жуманова Фатима Ураловна <b>РЕФОРМЫ, ПРОВОДИМЫЕ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА</b>	50
Акрамова Дилдора Эргашевна <b>СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИЙ РАЗВИТИЯ МЕХАНИЗМОВ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ ГИБКОСТИ У СТУДЕНТОВ КАК ПРОБЛЕМА СОВРЕМЕННОСТИ</b>	59
Akramova Dildora Ergashevna <b>IMPROVEMENT OF TECHNOLOGIES FOR DEVELOPMENT OF MECHANISMS OF PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FLEXIBILITY IN STUDENTS AS A PROBLEM TODAY</b>	63
Сирожиддинова Ирода Махаммадовна <b>ТАЪЛИМНИНГ ЗАМОНАВИЙ ПАРАДИГМАЛАРИДА КЛАСТЕРЛИ ЛОЙИХАЛАШТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ</b>	65

**XXI АСР ИЛМ-ФАНИ ВА ТАЪЛИМ СОҲАСИДА АЁЛЛАР: ЙОТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР**

Karimova Xapizaxon Qo'ldashevna <b>XOTIN-QIZLAR, ONALAR BILIMDON BO'LSA MILLAT YUKSALADI</b>	470
Tўхтаева Наргиза Эркин кизи <b>ФАКТОРЫ, ВЫЗЫВАЮЩИЕ ДЕПРЕССИВНОЕ ПОВЕДЕНИЕ У СОТРУДНИКОВ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ</b>	474
X.A. Xasanova <b>IXTISOSLASHTIRILGAN SAN'AT VA MADANIYAT MAKTABLARIDA DIRIJORLIK FANINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA AMALIY TAVSIYALAR</b>	477
N.Sh. Omonova <b>MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHDA DIDAKTIK O'YINLARNING AHAMIYATI</b>	479
Toshboyeva Saidaxon Raxmonberdiyevna <b>THE INFLUENCE OF THE TYPE OF THINKING ON THE MANIFESTATION OF CREATIVE ABILITIES IN FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS</b>	481
Sh.M.Muminjonova <b>BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING MUSIQIY-ESTETIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH</b>	484
Yusupova Nargiza Adashalievna <b>KIMYO FANIDAN TALABALARNING FUNKSIONAL SAVODXONLIGI SIFATINING PEDAGOGIK DIAGNOSTIKASI</b>	486
Nazarova Marg'uba G'ulamovna <b>PSYCHOLOGICAL DETERMINANTS OF TRAINING FUTURE ENGINEERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY</b>	495
Nurbayeva Xabiba Botirovna <b>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA MILLIY QADRIYATLARNI RIVOJLANTIRISH O'ZIGA HOS HUSUSIYATLARI</b>	497